



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**NAMANGAN VILOYATIDA
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO
TOVAR AYLANMASI**


***Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-iyun***



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 69-227-84-95***

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1-iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 316 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 88 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 230 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-iyun oyida tumanlarning chakana savdo tovar aylanmasi 9 766,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 109,8 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 710,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 131,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 9 055,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,4%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 593,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 114,9 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	9 766,0	109,8
Namangan shahar	3 835,3	115,5
tumanlar:		
Mingbuloq	317,7	106,0
Kosonsoy	439,6	106,4
Namangan	450,1	105,5
Norin	519,1	105,6
Pop	605,9	106,9
To'raqo'rg'on	705,8	107,8
Uychi	597,9	106,4
Uchqo'rg'on	476,0	105,9
Chortoq	475,0	107,0
Chust	816,6	106,0
Yangiqo'rg'on	527,0	105,8


2024- yilning yanvar-iyun oyida 2023- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan hududlarning Namangan sh. (115,5 %), To'raqo'rg'on (107,8 %) va Chortoq (107,0 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-iyun)




So'nggi 5 yillikda (2020-2024 yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2024- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,8% ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-iyun uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-iyun oyida o'sish sur'ati **109,8%** ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda




Namangan viloyatida
chakana savdo tovar
aylanmasida eng yuqori ulushni
Namangan shahri 39,3 % bilan
3 835,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Namangan viloyatida
chakana savdo tovar
aylanmasida eng quyi ulushni
esa, Mingbuloq 3,3 % bilan
317,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga
nisbatan, chakana savdo
tovarlar aylanmasida barcha
hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-iyun oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra 9 055,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 8,4 % ga oshdi. Namangan viloyatida miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 92,7 % ni tashkil etdi.

112,0

Namangan sh.

110,5

To'raqo'rg'on

109,1

Mingbuloq

108,8

Uchqo'rg'on

106,6

Norin

106,4

Uichi

Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 31,7 % ga o'sdi va 710,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 7,3% ulushiga to'g'ri keldi.

368,4

Chortoq

155,4

Namangan sh.

153,7

Yangiqo'rg'on

138,1

Namangan

123,9

Kosonsoy

109,2


Chust

108,9

Pop



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Uychi (99,2 %), Kosonsoy(98,7 %), Uchqo'rg'on(98,1 %) va Mingbuloq(98,0 %) tumanlarnida yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 7,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Namangan shahar (11,1 %), Chortoq (8,4 %), Pop (8,1 %), To'raqo'rg'on (8,0 %), tumanlarnida kuzatildi.

7,3 %



92,7 %



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*

Namangan
shahar

5 475,9

Yangiqo'rg'on

2 213,3

Mingbuloq

2 309,1

Kosonsoy

1 918,7

Namangan

2 324,7

Norin

2 940,9

Pop

2 561,0

To'raqo'rg'on

2 864,3

Uychi

2 560,8

Uchqo'rg'on

2 558,0

Chortoq


2 202,2

Chust

2 846,2

2024- yilning yanvar-iyun oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 3 170,3 ming. so'mni (2023- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 107,4 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Namangan shahri (5 475,9 ming. so'm), Norin 2 940,9 ming. so'm) va To'raqo'rg'on (2 864,3 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-iyun), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- iyun oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	768,7	110,4
Namangan sh.	237,5	93,4
tumanlar:		
Mingbuloq	19,2	109,2
Kosonsoy	28,6	174,8
Namangan	25,4	97,4
Norin	59,4	105,0
Pop	59,9	150,1
To'raqo'rg'on	99,3	96,8
Uychi	34,3	245,1
Uchqo'rg'on	41,7	125,8
Chortoq	64,8	194,4
Chust	66,2	149,4
Yangiqo'rg'on	32,5	108,2


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-iyun)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-iyun)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyun oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 593,1 so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 114,9 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 768,7 mlrd. so'mni (110,4 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 824,4 mlrd so'mni tashkil etdi (105,8 %).

2024-yilning yanvar-iyun oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 768,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (387,2 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 387,2 mlrd. so'm  50,3 %	Non va non mahsulotlari 71,9 mlrd. so'm  9,4 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 99,4 mlrd. so'm  12,9 %
Tovuq go'shti 36,7 mlrd. so'm  4,8 %	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 32,0 mlrd. so'm  4,2 %	Tuxum 26,1 mlrd. so'm  3,4 %
Ziravorlar 20,4 mlrd. so'm  2,7 %	Sut va sut mahsulotlari 39,0 mlrd. so'm  5,1 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 17,4 mlrd. so'm  2,3 %
Tuzlamalar 17,0 mlrd. so'm  2,2 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 13,4 mlrd. so'm  1,7 %	Nooziq-ovqat tovarlar 8,2 mlrd. so'm 1,0 %

2024- yilning yanvar-iyun oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 824,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi – 606,4 mlrd.so'm, qo'y va echkilar –70,3 mlrd. so'mni, otlar –4,9 mlrd. so'mni, parrandalar – 2,7 mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva
mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi**

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 426,6 mlrd. so'm  51,7 %	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 173,1 mlrd. so'm  21,0 %	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar 146,6 mlrd. so'm  17,8 %
Qo'ylar 65,9 mlrd. so'm  8,0 %	Otlar 4,9 mlrd. so'm  0,6 %	Echkilar 4,4 mlrd. so'm  0,5 %
Kurka, o'rdak, g'oz 2,2 mlrd. so'm  0,3 %	Tovuqlar 0,5 mlrd. so'm  0,092 %	Quyionlar 0,04 mlrd. so'm  0,005 %
Qushlar 0,03 mlrd. so'm  0,003 %		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 170 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 168 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- iyun oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	276,9	106,1
Namangan sh.	173,1	105,4
tumanlar:		
Mingbuloq	5,2	109,6
Kosonsoy	4,2	108,0
Namangan	14,3	81,0
Norin	4,2	110,6
Pop	12,9	132,9
To'raqo'rg'on	5,7	110,3
Uychi	3,4	109,5
Uchqo'rg'on	5,2	107,9
Chortoq	5,0	108,1
Chust	39,6	111,7
Yangiqo'rg'on	4,1	108,7

2024- yilning yanvar-iyun oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 276,9 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,1 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 88,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Namangan viloyati	1 755,0	101,1
Namangan sh.	1 345,8	103,8
tumanlar:		
Mingbuloq	9,0	118,0
Kosonsoy	3,9	114,6
Namangan	19,0	118,9
Norin	15,6	114,7
Pop	62,0	126,0
To'raqo'rg'on	6,1	116,2
Uychi	21,2	119,0
Uchqo'rg'on	1,7	111,8
Chortoq	8,7	118,2
Chust	255,1	81,6
Yangiqo'rg'on	6,9	150,6


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Namangan shahri (1 345,8 mlrd. so'm), Chust (255,1 mlrd. so'm) va Pop (62,0 mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024 yilning yanvar-iyun oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 1 755,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,1 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 524,3 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 121,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 1 230,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati –94,4 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda




Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-iyun oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 5 668,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 10,9 % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 4 401,4 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,3 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 77,6 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR’ATI

2024- yil 1- iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 539 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 34 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 508 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur’atlariga ega eng yirik korxonalar Pop(20,2 m), Namangan sh.(128,2 %), Mingbuloq (111,6 %) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023- yil yanvar- iyun oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	5 668,5	110,9
Namangan sh.	3 590,5	115,3
tumanlar:		
Mingbuloq	232,5	108,8
Kosonsoy	122,3	97,2
Namangan	213,7	102,3
Norin	283,3	103,6
Pop	142,9	107,4
To‘raqo‘rg‘on	171,3	85,0
Uychi	167,5	88,9
Uchqo‘rg‘on	125,8	74,1
Chortoq	293,8	174,5
Chust	136,3	97,7
Yangiqo‘rg‘on	188,5	106,8